



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar-may oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
(67) 236-70-00*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Sirdaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-may oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 262,4 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 113,3 mln. AQSH dollariga yoki 30,1 % ga kamaygan.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-may, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: 262,4 -30,1 %

(2023- y.: 375,7)



Saldo

2024- y.: - 42,9 (2023 y.: - 66,8)



Eksport

2024- y.: 109,7 -28,9 %

(2023- y.: 154,4)



Tovarlar: 108,5



Xizmatlar: 1,2



Import

2024- y.: 152,7 -31,0 %

(2023- y.: 221,3)



Tovarlar: 152,7



Xizmatlar: -








Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 107,7 mln. AQSH dollariga (28,9 % ga kamaydi) va import hajmi 152,7 mln. AQSH dollariga (31,0 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 42,9 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-may, mln. AQSH dollari)









Rossiya TSA – 42,9 Eksport: 25,0 Import: 17,9  16,4 %	XXR TSA – 67,7 Eksport: 16,3 Import: 51,4  25,8 %	Afg‘oniston TSA – 43,7 Eksport: 41,6 Import: 2,1  16,7 %	Qozog‘iston TSA – 65,4 Eksport: 9,6 Import: 55,8  24,9 %	Turkiya TSA – 7,5 Eksport: 3,4 Import: 4,1  2,9 %
Ukraina TSA – 2,6 Eksport: 0,5 Import: 2,1  1,0 %	Pokiston TSA – 6,2 Eksport: 5,1 Import: 1,1  2,4 %	Hindiston TSA – 4,5 Eksport: 0,0 Import: 4,5  1,7 %	Tojikiston TSA – 2,2 Eksport: 2,1 Import: 0,1  0,8 %	Qirg‘iz Respublikasi TSA – 2,4 Eksport: 1,1 Import: 1,3  0,9 %











Sirdaryo viloyati jahonning 46 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (16,4 %), XXRda (25,8 %), Afg‘onistonda (16,7 %), Qozog‘istonda (24,9 %), Turkiyada (2,9 %) va Ukraina (1,0 %) qayd etilgan.



SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-may, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	38,0	50,8	42,9
 <i>Eksport</i>	21,1	18,2	25,0
<i>Import</i>	16,9	32,6	17,9
XXR	62,5	58,4	67,7
 <i>Eksport</i>	26,9	17,9	16,3
<i>Import</i>	35,6	40,5	51,4
Germaniya	3,4	2,3	2,2
 <i>Eksport</i>	-	0,0	0,0
<i>Import</i>	3,4	2,3	2,2
Qozog'iston	86,5	122,1	65,4
 <i>Eksport</i>	8,2	13,6	9,6
<i>Import</i>	78,3	108,5	55,8
Turkiya	15,2	18,5	7,5
 <i>Eksport</i>	9,3	10,7	3,4
<i>Import</i>	5,9	7,8	4,1
Ukraina	6,9	0,7	2,6
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,5
<i>Import</i>	6,9	0,7	2,1
Latvia	0,0	0,0	0,5
 <i>Eksport</i>	-	0,0	0,4
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,1
Fransiya	0,4	1,4	1,2
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,4	1,4	1,2

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
 Qirg'iz Respublikasi	3,2	3,8	2,4
<i>Eksport</i>	1,0	1,1	1,1
<i>Import</i>	2,2	2,7	1,3
 Afg'oniston	40,2	77,5	43,7
<i>Eksport</i>	39,1	77,5	41,6
<i>Import</i>	1,1	0,0	2,1
 Belarus	0,6	5,2	0,6
<i>Eksport</i>	0,2	0,2	0,1
<i>Import</i>	0,4	5,0	0,5
 Hindiston	0,6	1,3	4,5
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,6	1,3	4,5
 BAA	0,3	0,0	0,0
<i>Eksport</i>	0,3	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0
 Tojikiston	6,1	4,0	2,2
<i>Eksport</i>	5,1	3,3	2,0
<i>Import</i>	1,0	0,7	0,2
 Eron	3,6	1,6	1,6
<i>Eksport</i>	0,9	0,9	1,0
<i>Import</i>	2,7	0,7	0,6
 Pokiston	0,0	0,0	6,2
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	5,1
<i>Import</i>	0,0	0,0	1,1
 Italiya	44,0	4,4	0,5
<i>Eksport</i>	-	0,0	0,0
<i>Import</i>	44,0	4,4	0,5
 Polsha	0,3	1,1	0,1
<i>Eksport</i>	0,0	0,8	0,1
<i>Import</i>	0,3	0,3	0,0




SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-may, mln. AQSH doll.)*



ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 37,0 % ulush bilan 97,2 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,3 % ulush bilan 0,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollarida)



2024- yil yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 44,5 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,1 % ga kamaydi.









Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024- yilning yanvar-may oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 23,1 % ga kamayib jami TSAdagi ulushi 55,5 % ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-may holatiga ko'ra, 116,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport 38,7 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 78,1 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-may, mln. AQSH dollari)


Rossiya TSA – 42,9 Eksport – 25,0 Import – 17,9		Qozog'iston TSA – 65,4 Eksport – 9,6 Import – 55,8	
Qirg'iz Respublikasi TSA – 2,4 Eksport – 1,1 Import – 1,3		Belarus TSA – 0,6 Eksport – 0,1 Import – 0,5	
Tojikiston TSA – 2,2 Eksport – 2,1 Import – 0,1		Ukraina TSA – 2,6 Eksport – 0,5 Import – 2,1	



Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (16,4 %), Qozog'iston (24,9 %) hamda Ukraina (1,0 %) davlatlari bilan qayd etildi.

SIRDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-may, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Sirdaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 113,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 36,2 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 77,1 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTI (2024- yil yanvar-may)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma‘lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksport hajmi 109,7 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 28,9 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.



XSST* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-may ulushi % da)



O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(yanvar-may, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	154,4	109,7	132,1	71,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	91,3	52,8	190,8	57,8	59,1	48,1
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,0	6,6 m.	11,7	0,1	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	3,2	4,5	52,4	141,4	2,1	4,1
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	0,0	0,7	3,6 m.	29,9 m.	0,0	0,7
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,0	0,0	9,1	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	4,6	2,7	96,8	60,3	3,0	2,5
Sanoat tovarlari	43,0	35,7	97,1	82,9	27,8	32,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	2,4	2,3	82,5	98,9	1,5	2,1
Turli xil tayyor buyumlar	8,9	9,6	91,3	107,9	5,7	8,8
Xizmatlar	0,9	1,2	137,5	131,2	0,7	1,2

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,8 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (32,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (48,1 %) va turli xil tayyor buyumlar (8,8 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-may)


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	38 575,8	49,6
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	3,3	129,5
Sabzavotlar va mevalar	14 118,9	107,6
Boshqa joyda tasniflanmagan oziq-ovqat mahsulotlari va pereparatlar	8,3	46,5
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	2,6	70,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	3 028,7	2,1 m.
Qog'oz massasi va makulatura	955,6	70,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	821,7	37,9
Birlamchi shakldagi bo'lmagan plastmassalar	1 247,8	73,5
O'g'itlar (272 guruxiga kiritilgan o'g'itlardan tashqari)	415,1	0,0

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	24 803,6	75,8
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 255,5	45,4
Cho'yan va po'lat	5,3	0,7
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	8 164,3	185,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	6,4	8,4 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	2 180,1	110,8
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	9 449,2	115,8
Har xil tayyor buyumlar	125,6	37,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,2	0,1

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-may oylarida MDH mamlakatlariga 38,7 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 35,2 % ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollari)



2024- yil yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 90,4 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-may, % da)






SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARI BILAN AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-may, yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya	18 233,9	24 985,3	86,4	137,0	8	1
Turkiya	10 663,6	3 452,8	99,9	32,4	6	12
XXR	17 944,7	16 330,0	66,7	91,0	11	5
Qozog'iston	13 682,4	9 573,6	165,9	70,0	3	7
Afg'oniston	77 468,3	41 623,7	198,3	53,7	2	10
Qirg'iz Respublikasi	1 141,4	1 111,2	118,2	97,3	5	4
Tojikiston	3 325,6	2 067,6	65,0	62,2	12	9
BAA	68,7	36,9	25,6	53,7	13	11
Pokiston	2 876,6	5 110,8	134,7	177,7	4	2
Egipt	0,0	769,5	0,0	0,0	17	17
Eron	870,6	1 007,4	90,5	115,7	7	3
Belarus	178,5	105,5	79,7	59,1	10	8
Polsha	850,8	84,1	28,5 m.	9,9	1	13
Ozərbayjon	184,7	165,2	33,3	89,4	14	6
Turkmaniston	82,8	0,0	24,4	0,0	15	16
Buyuk Britaniya	96,1	0,0	0,0	0,0	16	15
AQSH	59,9	4,8	84,2	8,0	9	14



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-may, mln.AQSH doll.)



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 25,3 % bilan 27,8 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,3 % bilan 0,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-may oylarida 47,5 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 183,0 tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Afg'oniston (18,1), Pokiston (27,8 %), Qozog'iston (35,1 %), hamda XXR (3,4 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 14,1 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 7,7 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 12,9 % ni tashkil etdi.











MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-may, qiymati)

<p>Pomidor</p> <p>167,5 ming. AQSH dollari</p> <p>176,2 tonna</p> 	<p>Karam</p> <p>966,6 ming. AQSH dollari</p> <p>3 869,5 tonna</p> 	<p>Yeryong'oq</p> <p>19,5 ming. AQSH dollari</p> <p>8,6 tonna</p> 	<p>Piyoz</p> <p>4 710,3 ming. AQSH dollari</p> <p>26 003,7 tonna</p> 
<p>Uzum yangi yoki quritilgan</p> <p>369,2 ming. AQSH dollari</p> <p>265,4 tonna</p> 	<p>Grek yong'og'i</p> <p>13,7 ming. AQSH dollari</p> <p>8,9 tonna</p> 	<p>No'xat</p> <p>2 185,5 ming. AQSH dollari</p> <p>8 413,3 tonna</p> 	<p>Loviya</p> <p>2 486,5 ming. AQSH dollari</p> <p>1 840,3 tonna</p> 



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-may)

Davlatlar	Tonna	Ming. AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Eron	387,1	305,7	2,2
 Pokiston	14 442,2	3 930,8	27,8
 Qozog‘iston	20 744,9	4 953,7	35,1
 XXR	690,5	475,8	3,4
 Afg‘oniston	8 377,8	2 557,7	18,1
 Latviya	1 062,8	390,4	2,8
 Tojikiston	323,1	133,8	0,9
 Boshqa davlatlar	69,3	1 371,0	9,7

* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-may oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog‘istonga to‘g‘ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 35,1 %) tashkil qilmoqda.




SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI

2024- yilning yanvar-may oylarida import hajmi 152,7 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 69,0 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (22,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (33,7 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (19,7 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-may oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31,0 % ga kamaydi va 152,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	221,3	152,6	104,9	69,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	102,2	50,5	130,5	49,4	46,2	33,7
Ichimliklar va tamaki	0,0	1,9	0,0	0,0	0,0	1,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	6,2	2,7	84,7	37,8	2,8	1,8
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	10,1	12,6	2,4 m.	125,2	4,6	8,4
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	7,1	1,3	26,9 m.	19,0	3,2	0,9
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	39,6	29,5	115,0	74,4	17,9	19,7
Sanoat tovarlari	9,7	11,5	93,2	118,9	4,4	7,7
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	41,8	33,7	57,0	74,9	18,9	22,5
Turli xil tayyor buyumlar	2,8	3,6	105,3	128,8	1,3	2,4
Boshqa tovarlar	1,7	5,3	0,0	3,1 m.	0,7	1,6




XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-may)


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	37 947,5	40,4
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	2 448,8	72,9 m.
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1 631,9	37,8
Tirik hayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	4 380,5	143,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	244,7	7,5
Probka va yog'och-taxtalar	1174,8	73,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	335,3	16,2
Ko'mir, koks va briketlar	7 185,5	89,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	1 345,2	19,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	972,5	116,2
Birlamchi shakldagi plastmassalar	13 173,7	61,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	6 822,2	117,9
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	4 678,3	59,4


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	1 979,6	96,5
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 079,2	67,6
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1 971,3	100,7
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	6 007,5	2,1 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	384,1	21,5
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	11 639,6	38,4
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	10 417,2	106,2
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	1 849,8	78,2
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	2 112,6	170,5
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	620,3	102,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	685,3	86,9
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	177,8	167,4

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

 2024- yil yanvar-may natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 51,1 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 14,4 % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollari)



 2024- yil yanvar-may oylarida Sirdaryo viloyati 40 ta davlatlar bilan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-may, % da)






SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-may, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Germaniya	2 275,0	2 155,9	67,6	94,7	14	8
Rossiya	32 565,5	17 957,2	192,9	55,1	7	11
XXR	43 574,1	48 249,3	113,6	110,7	11	6
Qozog'iston	108 460,3	55 799,5	138,6	51,4	8	13
Turkiya	7 795,6	4 089,1	131,2	52,4	9	12
Koreya Respublikasi	690,7	1 741,7	10,0	2,5 m.	19	5
Litva	7 333,8	3,4	10,8 m.	0,04	2	17
Vengriya	263,4	1 068,9	3,1 m.	4,0 m.	4	4
Bolgariya	0,0	309,7	3,0 m.	0,0	5	18
Turkmaniston	0,0	81,0	0,0	0,0	20	20
Belarus	506,9	515,3	2,0 m.	101,7	6	7
Bangladesh	0,0	0,0	123,4	0,0	10	19
Italiya	4 397,5	426,5	10,0	9,7	18	16
Buyuk Britaniya	45,4	527,4	10,0 m.	11,6 m.	3	2
Eron	675,2	596,3	24,9	88,3	17	9
Polsha	313,0	75,1	113,5	24,0	13	15
AQSH	45,5	428,8	295,6 m.	9,4 m.	1	3
Afg'oniston	42,9	2 076,9	30,8	48,3 m.	16	1
Azərbayjon	0,0	255,2	39,2	84,0	15	10
Qirg'iz Respublikasi	2 739,6	1 275,7	123,1	46,6	12	14



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-may, mln. AQSH doll.)



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 45,5 % bilan 69,4 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,2 % bilan 0,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2024- yil yanvar-may oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalar hajmi 33,6 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan 25,0 % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi 22,5 % ni tashkil qildi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-may)




2024- yil yanvar-may oylarida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,2 mln. AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Sirdaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — 20,8 mln. AQSH dollari (61,8 %), Ukraina — 2,0 mln. AQSH dollari (6,0 %) va Hindiston – 3,8 mln. AQSH dollari (11,2 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.




SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-may oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 11,5 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,9 % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 7,7 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-may)



Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (6 007,5 ming. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (1 078,2 ming. AQSH dollari), ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar (1 791,3 ming. AQSH dollari), rangli metal (84,1 ming. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.